

**MAMLAKATIMIZDA IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA TIKLANISH
VA TARAQQIYOT JAMG'ARMASINING O'RNI****Shukurillayev Anvar To'lqin o'g'li**

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14721103>

Annotatsiya. Ushbu tezisda O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini ichki va tashqi ta'sirlardan himoya qilishda O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining asosiy ahamiyati va jamg'arma tomonidan iqtisodiyotning qaysi sohalariga ko'proq e'tibor qaratilayotganligi xususida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti, Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi, iqtisodiy xavfsizlik, ichki va tashqi xavf, moliyaviy barqarorlik, valyuta zaxiralari, tashqi qarzlar, investitsiya, innovatsiya.

**THE ROLE OF THE RECONSTRUCTION AND DEVELOPMENT FUND IN
ENSURING ECONOMIC SECURITY IN OUR COUNTRY**

Abstract. This dissertation presents information on the key role of the Fund for Reconstruction and Development of the Republic of Uzbekistan in protecting the economy of the Republic of Uzbekistan from internal and external influences and on which sectors of the economy the Fund pays the most attention to.

Keywords: Economy of the Republic of Uzbekistan, Reconstruction and Development Fund, economic security, internal and external risks, financial stability, foreign exchange reserves, external debts, investment, innovation.

**РОЛЬ ФОНДА РЕКОНСТРУКЦИИ И РАЗВИТИЯ В ОБЕСПЕЧЕНИИ
ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ НАШЕЙ СТРАНЫ**

Аннотация. В данной диссертации представлена информация о ключевой роли Фонда реконструкции и развития Республики Узбекистан в защите экономики Республики Узбекистан от внутренних и внешних воздействий и о том, каким секторам экономики Фонд уделяет наибольшее внимание.


Ключевые слова: Экономика Республики Узбекистан, Фонд реконструкции и развития, экономическая безопасность, внутренние и внешние риски, финансовая устойчивость, валютные резервы, внешние долги, инвестиции, инновации.

Kirish: Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyoti jadal sur'atlarda rivojlanib bormoqda va bu Iqitisodiyot va moliya vazirligi tomonidan taqdim etilayotgan prognozlarda o'z aksini topmoqda. Oxirgi 5 yil davomida O'zbekiston Yalpi ichki mahsuloti sezilarli darajada o'sishga erishdi.

Xalqaro tajribalarni o'rganish orqali iqtisodiyotning o'sishini ta'minlashda turli xil qarashlarga ega bo'lish mumkin. Har qanday rivojlanish ortida katta mashaqqat va uzoq muddatli tajriba yotadi. Mamlakatda iqtisodiy o'sishni kuzatishda nafaqat uni tashqi tomonlama rivojlantirishimiz balki, ichki xavf va omillarni hisobga olish zarur. Jamg'arma nafaqat tashqi balki, ichki iqtisodiy muammolarni bartaraf etishda mamlakatga yordam beruvchi ko'priq vazifasini bajarib kelmoqda. Iqtisodiy xavf bu mamlakat, tashkilot yoki shaxsning iqtisodiy barqarorligi va rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan noaniqliklar, yo'qotishlar yoki zarar ehtimollari yig'indisidir. Iqtisodiy xavf omillari turli ko'rinishlarda bo'lishi mumkin va ular ichki yoki tashqi manbalardan kelib chiqadi.

Asosiy qism: Mamlakat iqtisodiy xavfsizligi mustaqillik va barqaror rivojlanishni ta'minlashning asosiy omillaridan biridir. Ushbu maqsadga erishishda iqtisodiy infratuzilmani mustahkamlash, strategik loyihalarni moliyalashtirish va iqtisodiy zARBALARGA bardoshli tizimni yaratishda Tiklanish va Taraqqiyot jamg'armasi muhim ahamiyatga ega. Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashda davlat zaxiralari va investitsion salohiyatdan oqilona foydalanish vositasi sifatida shakllangan. Jamg'arma O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan taqdim etilgan 2024-yilning 9 oyligi bo'yicha konsolidatsiyalashgan budgetning umumiy daromadini 3,8 % ini hamda xarajtlarni 5% ini tashkil etgan(1-rasm).


1-rasm.



Bunda shuni ko‘rishimiz mumkinki, jamg‘armaning ham mamlakatimiz iqtisodiyotida roli yuqori, ya’ni uning moliyaviy tomondan mamlakatni qo‘llab-quvvatlashidagi ishtiroki qanchalik ortib borishi kelajakda iqtisodiy rivojlanishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamg‘armaning maqsad vazifalaridan kelib chiqgan holda, moliyaviy barqarorlikni ta’minalash maqsadida davlat budgetining qo‘sishimcha manbai sifatida moliyaviy resurslarni safarbar qilish orqali iqtisodiy siyosatni qo‘llab-quvvatlash, Strategik investitsiyalarni moliyalashtirish maqsadida infratuzilma, energetika va transport sohalaridagi yirik loyihalarni moliyalashtirishni amalga oshirish, tashqi iqtisodiy zarbalarga qarshi xavfsizlik yostiqchasi vazifasini bajarish maqsadida global iqtisodiy o‘zgarishlar yoki kutilmagan inqiroz sharoitida mamlakatning moliyaviy mustaqilligini ta’minalashdan iborat va ish faoliyatini yuritish hamda nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 16-maydagi “O‘zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori orqali amalga oshiriladi[1].


Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining iqtisodiy xavfsizlikdagi roli



2023-yilga kelib jamg‘arma tomonidan investitsion loyihalarga mablag‘ ajratish hajmi sezilarli darajada oshdi. Xususan, energetika sohasida barqaror elektr ta’motini rivojlantirish bo‘yicha bir qator loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Tashqi savdo balansining ijobiy ko‘rsatkichga erishishi uchun eksportga yo‘naltirilgan loyihalarini qo‘llab-quvvatlash orqali milliy valyuta barqarorligini saqlab qolmoqda. Investitsiyani rag‘batlantirish orqali ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirish uchun davlat grantlari va subsidiyalarini ajratib, iqtisodiyotning investitsion rivojlanishini qo‘llab-quvvatlamoqda[2]. Xususiy sektorni kuchaytirish maqsadida esa, tadbirkorlarga imtiyozli kreditlar taqdim etib, ishbilarmonlik muhitini yaxshilashga ko‘maklashmoqda.

Hozirgi kunda jamg‘arma yirik xorijiy suveren jamg‘armalar, jumladan, Norvegiya davlat pensiya jamg‘armasi yoki Qatar investitsiya jamg‘armalari faoliyatini o‘rgangan holda, o‘z faoliyatida ularning standartlaridan foydalanib kelmoqda.

1-grafik.



Hozirda Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining 20 % dan yuqori ulushi mavjud bo‘lgan korxonalar ham iqtisodiyotimizni asosiy qismini tashkil etadi. Jamg‘armaning 2023-yil 31-dekabr holatiga ko‘ra, korxonalarning ustav kapitalidagi mablag‘lari 37 062 910 327 ming so‘mni hamda o‘tkan yilning mos davrida 32 534 359 080 ming so‘mni tashkil etgan. 1 yil davomida 14% ga o‘sigan, bunda jamg‘arma tomonidan ikkita yirik korxona ulushlari sotib olinishi o‘z ta’sirini ko‘rsatgan (“O‘zkimosanoat” AJning 58% ulushi(1 913 630 653 ming so‘m) va “O‘zmetkombinat” AJning 38,4% ulushi(1 734 290 598 ming so‘m)). Ushbu korxonalarning jamg‘armadagi umumiyligi qariyb 10% ga ega. Yuqoridagi 2023- va 2022-yillardagi farqning asosiy omili ushbu korxonalar ulushini sotib olinishidadir. Jamg‘arma tomonidan sotib olingan korxonalar ustav kapitalidagi ulushlar asosan ularni rivojlanishi uchun ko‘maklashishga hamda investitsion loyihalarni kuchaytirishga e’tibor qaratishga yo‘naltirilgan.

Mamlakatimiz yaqin kunlarda Juhon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lishni rejalashtirmoqda va bunda iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashda jamg‘arma asosiy rol o‘ynaydi ya’ni, ichki ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash, ularga imtiyozli kreditlar va subsidiyalar taqdim etish orqali chet ellik raqobatchilarga mos mahsulotlarni taqdim etishga ko‘maklashishi mumkin. Bundan tashqari milliy valyuta barqarorligini ta’minlash uchun xalqaro valyuta bozorida keng foydalanilayotgan barqaror valyutalar zaxirasini yaratishi hamda infliyatsiyasini targetlashda asosiy e’tiborni makroiqtisodiy siyosatni kuchaytirishga qaratishi lozim.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi O‘zbekiston iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash, inqirozlarga bardoshlilikni oshirish va barqaror rivojlanishni qo’llab-quvvatlashda muhim institut hisoblanadi. Jamg‘armaning strategik yondashuvi va samarali boshqaruvi mamlakat iqtisodiy siyosatining muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta’minlashda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashdagi roli kelgusida ham yuksak ahamiyat kasb etishi kutilmoqda.

REFERENCES

1. <https://lex.uz/docs/-1004727>.
2. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/12/26/budget/>.